

ALISHER NAVOIY IJODI VA O‘LMAS QADRIYATI

Ravshanova Marjona KarimovnaE-mail: ravshanovamarjona373@gmail.comTel: [+998993761903](tel:+998993761903)**Xayrullayeva Dilnoza Narzullayevna**E-mail: xayrullayevadilnoza218@gmail.comTel: [+998883071306](tel:+998883071306)

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabalari

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodining ahamiyati va uning o‘lmas qadriyatlari tahlil qilinadi. Navoiy nafaqat buyuk shoir, balki mutafakkir va davlat arbobi sifatida ham o‘zbek adabiyoti va madaniyatida muhim o‘rin tutadi. Uning asarlari insonparvarlik, adolat, ma‘rifat, muhabbat va vatanparvarlik g‘oyalarini targ‘ib qiladi. Shoirning o‘zbek tilini rivojlantirishdagi hissasi, turkiy adabiyotning yuksalishiga qo‘shgan ulkan hissasi ham yoritiladi. Uning “Xamsa” dostonlari, lirik g‘azallari va ilmiy-falsafiy asarlari Sharq adabiyotining yuksak namunalaridan hisoblanadi. Navoiy merosi faqat adabiy qimmatga ega bo‘lib qolmay, balki milliy o‘zlik, ma‘naviyat va qadriyatlarimizni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada shoirning ijodiy merosi, uning tasavvuf, falsafiy va axloqiy qarashlari hamda bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab qolgan qadriyatlari yoritiladi.

Kalit so‘zlari: Xuroson, ko‘kaldosh, “Oshiqmiz”, Hirot, “Guliston”, “Bo‘ston”, “Mantiqut tayr”, Mashhad.

Abstract. The significance of the work of Alisher Navoi in Ushba and an analysis of his immortal articles. Navoi, as a great national poet, but also a thinker and statesman, occupies an important place in Uzbek literature and culture. His works promote the ideas of humanity, justice, enlightenment, love and patriotism. The poet's contribution to the development of the Uzbek language, his great contribution to the rise of Turkic literature are also highlighted. His epic poems "Khamsa", lyrical ghazals and scientific and philosophical works are considered high examples of Eastern literature. Navoi not only has literary value, but also preserves our national identity, spirituality and values. The article highlights his creative heritage, his mystical, philosophical and moral views, and the objects that have retained their relevance today.

Keywords: Khorasan, Kokaldosh, "Oshiqmiz", Herat, "Gulistan" "Bustan", "Mantiqut-Tayr", Mashhad.

Абстрактный. Автор статьи говорит, что он приложил все усилия, чтобы избежать ненужных осложнений. Если вы что-то покупаете, вы можете купить это сами, а затем... Если у вас плохое настроение, вам нужно что-то сделать... Казахский язык используется для описания ситуации, а в турецком языке используется для описания ситуации. Пока жива «Хамса», ее тексты полны лжи, а песни «Шарка» полны самоуничижительных текстов. Результаты данного

исследования взяты из книги «Тайна мира», ... Цель данной статьи - убедиться, что предоставляемая вами информация ложна, ваши действия ложны, а ваши действия ложны.

Ключевые слова: Хорасан, Кукалдош, «Ошиқмиз», Герат, «Гулистан», «Бустан», «Мантыкут-тайр», Меишед.

Kirish. Nizomiddin Mir Alisher Navoiy 1441 yili 9 fevralda Hirotda tavallud topgan. Alisher Navoiyning ota tomondan bobosi Amir Temurning Umar Shayx ismli ikkinchi o‘g‘li bilan ko‘kaldosh (emikdosh) bo‘lib keyinchalik Umar Shayx va Amir Temurning to‘rtinchi o‘g‘li Shohruxning xizmatida bo‘lgan. Otasi G‘iyosiddin Muhammad Bahodir esa Xuroson hukmdori, temuriylardan Abulqosim Boburning yaqinlaridan; mamlakatni idora etishda ishtirok etgan. Onasi Kobul amirzodalaridan Shayx Abu Said Changning qizi bo‘lgan. Alisher Navoiyning bolaligi temuriy hukmdor Shohruh mirzo hukmronligining so‘nggi yillariga to‘g‘ri keladi. U temuriy shahzoda Husayn Boyqaro bilan birga tarbiyalanadi to‘rt yoshida maktabga borib, tez fursatda savod chiqaradi. Turkiy va forsiyda bitilgan she‘rlarni o‘qib yod oladi. O‘zbek tili bilan bir qatorda forsiyni ham mukammal egallaydi. Alisherning tog‘alari Mirsaid Kobuliy va Muhammad Ali G‘aribiy ham shoir bo‘lgan. Bo‘lajak shoir ana shunday muhitda tarbiya topadi. Bolaligi zamonasining mashhur olim-u fozillari davrasida o‘tadi. Uch-to‘rt yoshlarida mashhur shoir Qosim Anvorning “Oshiqmiz, jahon o‘rtovchi va yoqavayronlarimiz, sening g‘aming turganda dunyo fikridan ne foyda” baytini yod aytib mehmonlarni hayratga solgan.[1]

U she‘riyatga g‘oyat qiziqdi, Sharq adabiyotini qunt bilan o‘rgandi. Oila muhiti bolaligidayoq zo‘r havas tug‘dirgan edi. Alisher Navoiylar uyida shoirlar tez-tez to‘planishib mushoira qilishar, adabiyot va san‘at haqida suhbatlashishar edilar. Bo‘lajak shoir Hirotda mashhur shoir–u fozillardan tahsil olib, she‘rlar mashq qila boshlaydi. Sa‘diy Sheroziyning “Guliston”, “Bo‘ston” asarlarini o‘qib, Fariduddin Attorning “Mantiqut tayr” dostonini yod oladi. Ushbu falsafiy doston yosh Alisherning dunyo qarashida katta o‘zgarish yasaydi. U kelajakda “ Mantiqut tayr” singari jiddiy asar yaratishni ko‘ngliga tugib qo‘yadi. Zamondosh tarixchi G‘iyosiddin Xondamirning ma‘lum qilishicha Turkiyda ijod etgan buyuk shoir Mavlono Lutfiy o‘smir Alisherdan:

- Biror g‘azal o‘qib berish orqali o‘z tafakkuringiz mahsullarining yangi namunalaridan bahramand eting,- deb so‘raydi.

Alisher matla‘yi quydagicha bo‘lgan g‘azalni o‘qib beradi:

Orazin yopqoch, ko‘zumdin sochilur har lahza yosh,

Bo‘ylakim, paydo bo‘lur yulduz, nihon bo‘lg‘ach quyosh.

Shunda Lutfiy: ”Imkoni bo‘lsa edi, o‘zimning turkiy va forsiydagi 10-12 ming baytdan iborat g‘azallarimni shu birgina g‘azalga almashtirgan va ushbu ayirboshlash natijasini o‘zim uchun katta muvaffaqiyat hisoblagan bo‘lardim”, deb yosh shoir iste‘dodini yuksak baholaydi. Alisher bolalik chog‘laridan umrining oxirgi damlarigacha asosiy vaqtini ilm egallash yo‘lida sarflagan. Bir lahza bo‘lsa-da, turli bilim va ko‘nikmalarni egallashdan tinmagan. Alisher Navoiy 13-14 yoshlarida otasi hayotdan ko‘z yumishi bilan uni Uni

Abulqosim Bobur o‘z tarbiyasiga oladi, katta badiiy iste’dodi uchun g‘oyat e‘zozlaydi. U 15 yoshida shoir sifatida keng tanilgan She‘rlarini turkiy (Navoiy taxallusi bilan) va forsiy(Foniy taxallusi bilan) tillarda yozgan. Shoir “Muhokamatul lug‘atayn” asarida bayon qilishicha, yigitlik davrida 50 migdan ortiq baytni yod bilgan. Alisher Navoiy 1501-yil 3-yanvarda Hirotida vafot etgan.[2]

Asosiy qism. O‘z davrining buyuk mutafakkiri bo‘lgan Alisher Navoiy yoshligida ko‘plab mashaqqatlarni boshidan kechirgan. 1447-yilda Shohruh Mirzo vafotidan so‘ng temuriy shahzodalar o‘rtasida taxt uchun kurash avj oladi. Hitotda ro‘y bergan notinchlik sababli G‘iyosiddin Muhammad oilasi bilan Iroqqa ko‘chishga majbur bo‘ladi. Ushbu safar chog‘ida Taft shahrida Alisher mashhur tarixchi, “Zafarnoma” asarining muallifi Sharafuddin Ali Yazdiy bilan uchrashadi va uning duosini olishga musharraf bo‘ladi. 1451-yil Xurosonda urush harakatlari barham topgach, Alisherning oilasi Hirotga qaytib keladi. 1452-yilda Abulqosim Bobur Mirzoning Xuroson taxtiga o‘tirishi bilan mamlakatda tinchlik-osoyishtalik qaror topadi. Otasi G‘iyosiddin Muhammad vafot etgach Alisher Navoiy Abulqosim Bobur qaramog‘ida qoladi. 1456-yil oktabrda mamlakat poytaxti Hirotidan Mashhadga ko‘chiriladi, Abulqosim yosh Alisherni ham, o‘z xizmatida bo‘lgan Husayn Boyqaroni ham Mashhadga olib ketadi. Abulqosim Boburning vafot etishi yosh Alisher uchun bu otasi vafotidan keyingi eng og‘ir judolik bo‘ldi. U Mashhad madrasalaridan birida o‘qishni davom ettirdi. Do‘sti Husayn Boyqaro esa Marv va Chorjo‘y tomonlarga omad qidirib ketadi [3].

Xurosonni temuriylarning yana bir vakili, Movarounnahr hukmdori Sulton Abu Said egallaydi va poytaxtni Samarqanddan Hirotga ko‘chiradi. Husayn Boyqaroning taxtni egallash yo‘lidagi asosiy raqibi-Abu Said edi. Abu Said davrida Alisher Navoiy ijodi yuksak baholanib Samarqanddagi siyosiy va davlat faoliyati uchun unga “Chig‘atoy amiri “ unvoni berilga edi. 1469-yil boshlarida Sulton Abu Said Qorabog‘da o‘z askarlari tomonidan o‘ldiriladi. Ko‘pdan buyon shunday vaziyatni kutib yurgan Husayn Boyqaro zudlik bilan kelib, Hirot taxtni egallaydi. Bu xabarni eshitgan Alisher Navoiy ham Hirotga yetib keladi. 1469 –yil 14-aprel kuni ramazon hayiti munosabati bilan uyishtirilgan qabul marosimida Alisher Navoiy o‘zining Husayn Boyqaroga yangi yozgan “ Hiloliya” qasidasini taqdim etadi. Podshoh Alisher Navoiyni muhrdorlik mansabiga tayinlaydi. Alisher Navoiyning asosiy maqsadlaridan biri saroy maslahatchisi bo‘lib qolish, ko‘proq ijodiy ish bilan shug‘ullanish edi. Biroq Husayn Boyqaro uni o‘z saroyining bosh vaziri qilib tayinlaydi va unga “ Amiri kabir” unvonini beradi hukumatidagi muhrdorlik vazifasiga esa Alisher Navoiyning Samarqandlik do‘sti, shoir Shayxim Suhayliy tayinlanadi. Alisher Navoiy qurilish ishlariga ham alohida e‘tibor qaratadi, tarixchi Xondamirning qayt qilishicha 1480-yillar davomida u o‘z mablag‘i hisobidan Hirot va mamlakatning boshqa shaharlarida bir necha madrasa, 40 rabot, 17 masjid, 10 xonaqoh, 9 hammom, 9 ko‘prik, 20ga yaqin hovuz qurgan yoki ta‘mirlatgan. Ular orasida Hirotidagi “Ixlosiya”, “Nizomiya” madrasalari “Xalosiya” xonaqohi “Shifoia” tibgohi, Qur‘on tilovat qiluvchilarga mo‘ljallangan “Dorul-huffoz” binosi, Marvdagi “Xusraviya” madrasasi,

Mashhaddagi “Dorul-huffoz” xayriya binosi va boshqa noyob me’moriy yodgorliklarni o‘z mablag‘idan ta’miratgan [4].

O‘rta asrlar Sharq adabiyoti, xususan, forsiy va turkiy she’riyat rivojida xamsachlik an’anasi alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu an’ananing boshlanishiga buyuk ozorboyjon shoiri Nizomiy Ganjaviyning XII asrning ikkinchi yarmi va XIII asr boshida yaratgan “Maxzan ul-asror” dostoni asos bo‘ldi. “Xamsa” (arabcha “beshlik” degani) yoki “Panj ganj” (forsiy tilda “Besh xazina” ma’nosida) nomlari bilan yaxlit kitob holda juda keng tarqalgan, turli tillarga tarjima qilinib, shuhrat topgan. 1253-1325-yillarda yashab ijod qilgan Xisrav Dehlaviy o‘zining fors-tojk tilidagi “Matla ul- anvor” dostonini yaratib, Nizomiy “Xamsa”siga to‘la javob yaratdi va bu an’ananing boshlovchisi bo‘lib maydonga chiqdi. XV asrda yashagan aksariyat shoirlar “Xamsa”ga o‘xshatma bitishga harakat qilgan bo‘lsalar ham, ko‘plari bir yoki bir necha asar yaratishga erishdilar. Navoiy o‘z ustozlari “Xamsa”larida ijobiy fazilatlar egasi tarzida gavdalandirilgan shoh Xusravni zolim, bosqinchi, makkor, nomard hukmdor sifatida tasvirlab, tarix haqiqatiga zid keladigan qiyofada aks ettirib, o‘quvchilar ommasida unga nisbatan kuchli nafrat hisini uyg‘otadi. Navoiy “Xamsa”si qahramonlari asrlar davomida necha- necha avlodlar uchun ma’naviyat va odobda, odamiylik va jasoratda, xalqparvarlik va sahovatda o‘rnak bo‘lib xizmat qiladigan badiiy siymolar bo‘ldi. Farhod va Qays, Suhayl va Sa’d, Axiy va Farrux, Muqbil va Jo‘na kabi betakror qiyofalar, Shirin va Layli, Mehr va Mehinbonu, Dilorom va boshqa ma’naviy barkamol ayollar timsollari Navoiy asridan boshlab hanuzgacha yoshlarimizni oliyjanob fazilatlar ruhida tarbiyalab kelmoqda [5].

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, Alisher Navoiy o‘z asarlari orqali adabiyot, ma’naviyat va ahloqiy qadriyatlarni yuksak darajada targ‘ib etgan. Uning ijodi nafaqat badiiy go‘zallik, balki insoniylik, adolat va vatanparvarlik g‘oyalari bilan yo‘g‘irilgan. Navoiy asarlari bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan bo‘lib, milliy va jahon adabiyotining bebaho xazinasini tashkil etadi. Uning g‘oyalari har bir avlod uchun ibrat manbai bo‘lib qolaveradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

- 1-Alisher Navoiy. Imom Buxoriy Xalqaro Ilmiy Tadqiqot Markazi: 2022.
- 2-Alisher Navoiy. O‘zbekistondagi Islom Sivilizatsiyasi Markazi: 2022.
- 3-Buyuk Ajdodlarimiz. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti: 2010.
- 4-Buyuk Ajdodlarimiz. O‘zbekiston Matbuot va axborot agintligining O‘zbekiston nashriyoti: 2010.
- 5-Alisher Navoiy. Yangi asr avlodi: Toshkent, 2019.